

# «Covid-19 Pandemiyasi Davrida Bolland Pielonefritning Kliniko-Laborator Xususiyatlari, Diagnostikasi »

Guli Nurmuminovna Gapparova  
Samarqand davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** 2019–2021 yillar davomida insoniyat orasida tarkalgan yangi virusli SARS-CoV-2 (COVID-19) infeksiyasi pandemiyasi munosabati bilan Covid-19 virusini diagnostikasi, davolash va profilaktikasiga doir ko‘plab ilmiy tadkikot ishlari olib borilmokda. Bolalar o‘rtasida Covid-19 infeksiyaga chalinish 2021-yil davomida sezilarli darajada ortganligi ko‘zatildi. COVID-19 kasalligining og‘ir kechishga moyil bo‘lgan bolalar guruhiga premorbid fonida bo‘lgan bolalarni kiritish mumkin (o‘pka kasalliklari, Kawasaki kasalligi, turli xildagi immuntanqislik holatlari, buyrak kasalliklari va b.). Ko‘pincha 5 yoshdan oshgan bolalar kasallanganliklari ma'lum. Kasallikni ko‘pincha simptomsiz kechishi ayttilmoqda, ammo buyrak kasalligi bilan og‘rigan bolalarda kasallikni og‘r va cho‘ziluvchan kechishi ko‘zatilmoqda. COVID-19 kasalligi bolalar o‘rtasida epidemiologiyasi va turli xil organlarning zararlanish patogenetik mexanizmlari, morfologiyasi, klinik kechishi, laborator diagnostikasi, davolash va reabilitasiyasi masalalari pediatrik amaliyotda - to‘la yechimini topmagan.

**Kalit so‘zlar:** Covid-19, pandemiya, bolalar, pielonefrit, proteinuriya, leykosituriya, gematuriya.

## Mavzuning dolzarbligi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib keluvchi surunkali progressiv buyrak kasalliklarining ko‘payishi ko‘zatilmoqda. Pielonefrit muayyan tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasallik bo‘lib qolmoqda. Buni qator yillar davomida mavjud bo‘lgan xalqaro buyrak registrlari tasdiqlaydi. Pielonefrit bilan kasallangan bemorlarni davolash samaradorligining yetarli emasligi sabablari orasida uning patogenezi asoslarini to‘liq ochib bermilmaganligi alohida o‘rin tutadi. 2019–2020 yillarning boshlarida insoniyat yangi virus SARS-CoV-2 (COVID-19) infeksiyasiga duch keldi, u ko‘plab mamlakatlarda tez tarqaldi va pandemiya darajasiga yetdi. 2020 yilning aprelida Uxan Markaziy shifoxonasi mutaxassislari koronavirusning buyrak faoliyatiga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqotni e’lon kildi. Koronavirus infeksiyasiga chalingan, shifoxonaga yotqizilgan bemorlarning 27,06 foizida buyraklar shikastlanishi aniqlangan. COVID-19 hujayraga kirish uchun angiotenzinni o‘zgartiradigan 2 ferment reseptorlari (ACE 2) turidan foydalanganligi ma'lum. ACE 2 buyraklarda yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Shu sababli buyrak kasalligi COVID-19 infeksiyasining kelib chiqishiga va kasallikning klinik kechishini og‘irlashtiruvchi sabab bo‘ladigan omildir.

**Ishning maqsadi.** Samarqand viloyatida yashovchi bolalarda COVID-19 kasalligi bilan kontaktda bo‘lgan, pielonefriti bor bolalarda pielonefritning kliniko-laborator xususiyatlarini aniqlash, erta tashxislash.

**Tadqiqot ob‘ekti va predmeti:** COVID-19 kasalligi bilan kontaktda bo‘lgan 3 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan pielonefriti mavjud 40 nafar bemorlar.

**Tekshiriladigan bolalar guruhlari:** Tadqiqotda 2021 yilda Samarqand viloyati klinikalarida stasionar va ambulator sharoitida davolanayotgan 40 nafar bola ishtirop etdi.

Tadqiqotga kiritilgan barcha bolalar 2 ta asosiy guruhni tashkil etadi.

I guruh –COVID-19 kasalligi bilan kontaktda bo‘lgan pielonefriti bor 22 ta bemor bolalar.

II guruh - COVID-19 kasalligi bilan kontaktda bo‘limgan pielonefriti bor 18ta bemor bolalar.

## Tekshirish usullari:

1. Umumiyl klinik- anamnez, shajara (nasl-nasab) tahlili, tibbiy ko‘rik, qon taxlili va siydik taxlili, IFA taxlili, kon va siydikni bioximiayaviy taxlili

2. Instrumental - buyrak UTT doplerometriya bilan, qon bosimini o‘lchash.

3. Buyraklar konsentrasiyon funksiasini Zimniskiy sinamasi yordamida baxolash.

**Klinik tekshirish natijalari.** Birinchi guruhdagi bemor bolalarda PSR va IFA taxlillari o‘tkazilgan, natijalarga ko‘ra 13 (59%) IFA taxlili, 9 (41%) da PSR taxlili musbatligi ko‘zatildi.

Birinchi guruhdagi bemor bolalarda umumi intoksikasiya sindromi – 19 (86,36%) da, dizurik hodisalar – 12 (54,54,1%) da, og'riq sindromi -8 (36,3%) da, harorat reaksiyasi - 20 (91%) ko'rinishida namoyon bo'ldi.

Ikkinci guruhdagi pielonefritning klinik ko'rinishlari 12 (66,6%) da harorat reaksiyasi, 10 (55,5%) da intoksikasiya belgilari, 4 (22,2,1%) da og'riq sindromi, 3 (16,6%) da dizuriya sindromlari ko'zatildi.

Leykosituriya birinchi guruh bolalarida 18 nafar (81.8%) da aniqlandi.

Proteinuriya 0.03 dan 2.72 g/l gacha bemorlarning ko'pchiligidagi - birinchi guruhdagi 19 (86.3%) bemorlarda va undan kam darajada - ikkinchi guruhdagi 10 (55,6%) da ( $p < 0.05$ ) aniqlandi.

Birinchi guruhdagi 9 nafar (40,1%) bemorlarda va ikkinchi guruhdagi 1 (5,5%) bemorlarda o'tkir buyrak shikastlanishining juda kam uchraydigan simptomni bo'lgan gematuriya ko'zatildi.

**Laborator taxlil natijalari.** Yallig'lanish jarayonining faolligi leykositlar, neytrofil granulositlar soni va periferik qonda eritrositlar cho'kish tezligi bilan baholandi.

Shunday qilib, birinchi guruh bolalarining 21 nafarida (95.4%) EChT 17 dan 38 mm/soatgacha kuzatildi va leykositoz 13\*10<sup>9</sup> dan- 35\*10<sup>9</sup> gacha kuzatildi. 2 guruhidagi bemorlarda EChT nisbatan kamroq aniqlandi - 8 (44.4%) ( $p < 0.01$ ), neytrofil leykositoz-6 (33,3%) ( $p < 0.05$ ).

Yengil anemiya belgilari birinchi guruh bolalarida – 7 (31,8%), o'rtacha og'irlilikda - 5 (22,7%), og'ir darajada - bir (4,5%) qiz bolada aniqlandi. Ikkinci guruhda yengil og'irlilikdagi anemiya 4 (22,2%), o'rtacha og'irlilikdagi anemiya – 2 (11,1%) da bo'lgan.

Buyraklarning funksional zahirasi va buyyraklar konsentrasiyon funksiasi Zimniskiy sinamasi yordamida o'tkazildi. Mazkur funksiyani yanada aniqroq baholash uchun quruq mahsulotlarni yeyish sinamasi orqali taxlil olib borildi.

### Xulosa.

COVID-19 bilan kontaktدا bulgan bolalarda pielonefrit intoksikasiya belgilarining ustunligi bilan xarakterlanadi. Surunkali pielonefritning qaytalanuvchi kechishi kuzatildi. COVID-19 bilan kontaktda bulgan bolalarda tana haroratning 39 dan oshishi (54,5 %), mahalliy og'riq sindromi, siydiķda proteinuriya ustunligi kuzatildi, kasallikning ogir, chuziluvchan kechishi kuzatildi.

### Adabiyotlar ruyxati

1. Аверьянова, Н. И. Лечение и профилактика рецидивов пиелонефрита с кри- сталлуроидом у детей / Н. И. Аверьянова, Л. Г. Балуева // Российский вестник перинатологии и педиатрии. - 2016. - Т. - 61. - № 6. - С. 104-108.
2. Активность эндогенной системы антиоксидантной защиты в процессе жизнедеятельности организма / М. А. Луцкий [и др.] // Медицинские науки. Успехи современного естествознания. - 2014. - № 12. - С. 20-23.
3. Ахмеджанова Н.И. Эффективность региональной лимфатической антибиотикотерапии и иммунокоррекции при хронических пиелонефритах у детей: дис. Ташкент: Автореф. дис.... канд. мед. наук, 2010.
4. Ахмеджанова Н.И., Ибатова Ш.М., Ахмеджанов И.А. Новые методы диагностики и лечения хронического пиелонефрита у детей // Здоровье, демография, экология финно-угорских народов, 2017. № 4. С. 92-95.
5. Аверченко М.В. Способ диагностики нефроангиосклероза у детей и подростков / М.В. Аверченко, О.П. Ковтун, И.Б. Панкратова // Ультразвуковая и функциональная диагностика. - №5. - 2011. — С.81.
6. Аверченко Ю., М.В. Способ оценки допплерографических показателей ренальной гемодинамики у детей и подростков / М.В. Аверченко // Ультразвуковая и функциональная диагностика. - №5. - 2012. - С.40-46.
7. Арутюнян К.А. Принципы диспансеризации и реабилитации детей с пиелонефритом / К.А. Арутюнян, Э.Л. Чупак // Амурский медицинский журнал. - 2015. 1(9). – С.43-46.
8. Ахмеджанова Н.И., Дильмурадова К.Р. Ренопрофилактика при вторичном хроническом пиелонефrite у детей // Педиатр, 2017. Т. 8. № 6.

- 
9. Архипов Е.В. Современные рекомендации по диагностике и лечению пиелонефрита с позиции доказательной медицины /Е.В. Архипов, О.Н. Сигитова, А.Р. Богданова // Вестник современной клинической медицины. – 2015. – Т.8, вып.6. – С.115-120.
  10. Ахмеджанова Н.И., Дильмурадова К.Р. Критерии диагностики эндогенной интоксикации при хроническом пиелонефрите у детей // Педиатрия.-Ташкент, 2014. - № 3-4. – С. 53-55.
  11. Baez D. Clinical findings of 6 children with COVID-19, risks factors associated with COVID-19 death, and detection of SARS-CoV-2 in different clinical specimens. 2020.
  12. Cai J, Xu J, Lin D, et al. A Case Series of children with 2019 novel coronavirus infection: clinical and epidemiological features. Clin Infect Dis. 2020. doi: 10.1093/cid/ciaa198.